



## **1-mavzu. “BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI” FANINING PREDMETI VA METODI HAMDA UNING ELEMENTLARI**

**1.1. Buxgalteriya hisobini ahamiyati, metodlari, fan tarixi va rivojlanish tendensiyalari.**

**1.2. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi, vazifalari.**

**1.3. Buxgalteriya hisobi va unda zamonaviy axborot texnologiya va innovasion usullardan foydalanish yo'llari**

**1.4. Xo'jalik hisobining umumiy tavsifi**

**1.5. Xo'jalik hisobining turlari: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi**

**1.6. Hisob turlarida qo'llaniladigan: natural, mehnat va pul o'lchovi birliklari.**

**1.7. Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi**

**Tayanch iboralar: Xo'jalik hisobi, hisob turlari, operativ hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi, o'lchov birliklari, hisob ob'ekti va sub'ekti.**

### **1.1. Buxgalteriya hisobini ahamiyati, metodlari, fan tarixi va rivojlanish tendensiyalari.**

«Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fani buxgalteriya hisobining asosiy nazariy qismi bo'lib, unda buxgalteriya hisobining jamiyatdagi o'rni, ahamiyati, vazifasi, predmeti, ob'ekti, tamoyillari, usullari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari o'rganilsa, «Moliyaviy hisob» va «Boshqaruv hisobi» fanlarida buxgalteriya hisobining tamoyillari, usullari amaliyotda qanday qo'llanishi o'rganiladi.

«Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fani nafaqat buxgalteriya hisobi tizimi uchun balki, barcha iqtisodiy fanlar uchun ham nazariy manba hisoblanadi. Ayniqsa iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida barcha ma'muriy - boshqaruv xodimlari va ishchi-xizmatchilari iqtisodiy tushuncha hamda jarayonlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunday iqtisodiy tushuncha hamda jarayonlar mazmuni «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» fanida ko'rib o'tiladigan usul va tamoyillar orqali ifodalanadi.



**shior:**

- **Science** – ilm,
- **Conscience** – ishonch,
- **Independance** – mustaqillik

**har qanday odamga  
uning qilgan ishlariga  
qarab baho berish  
mumkin. (m.servantes)**

Buxgalterlar axborot beruvchilardir, ya'ni buxgalteriya - aktsiyadorlar va boshqaruvchilar kabi foydalanuvchilarga biznesni moliyaviy holatini san'at darajasida etkazib berishdir. Ma'lumotlar umumiy moliyaviy hisobotlar shaklida bo'lib, boshqaruv nazoratida iqtisodiy resurslarni raqamlarda ko'rsatadi.<sup>1</sup>

## Italiya maktabi

**XV-XVII** asrlarda Italiya maktabi ustunlik qilgan. Uning vujudga kelishi Venetsiyada B.Kotrulining «Savdo va mukammal savdogar xususida» (1458) va I.Pacholining «Schyotlar va yozuvlar haqida»gi asari (1494) chop etilishi bilan bog'liq. ushbu asarlar jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

<sup>1</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 3 p.

## Anglo Amerika maktabi

**XX** asr boshlarida Anglo-amerika buxgalteriya maktabi tez rivojlana boshladi. Ushbu maktabning vakillari quyidagilardir: I.E.Shprut, V.E.Paton, D.O.Mey, I.Harrison, R.Antoni, I.Fisher, D.Skott, R.X.Montgomeri

## Frantsiya maktabi

**XVII** asrdan boshlab buxgalterlik ilmining Frantsiya maktabi rivojlana boshlagan. Frantsiya maktabining vakillari Italiyalik mualliflar g'oyalarini rivojlantirib, buxgalterlik ilmining taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shganlar. bular M. van Damm, M.Toma, A.Mendes, E.Degranj, J.P.Savari, J.B.Dyumarshe, E.Leote, A.Gilbio va B. Evropada Fransiya hukmronlik qilgan davrda hisob sohasida "Hisob bu boshqarish funksiyasi" degan aforizm paydo bo'ldi.

## Germaniya maktabi

*XX asrning birinchi yarmida Germaniya buxgalterlar maktabi ustunlik qila boshlagan. Uning yorqin namoyondalari I.F.Sher, G.Niklish, E.Shmalenbax, F.Gyugli va b.*

*Germaniya maktabida balansshunoslik yo'nalishi vujudga kelgan, iqtisodiy taxlil rivojlangan, tannarx kalkulyatsiyasi, markzalashgan va markzalashmagan buxgalteriya to'g'risida qoidalar shakllangan.*

## Rossiya maktabi

*Rossiyada hisob Evropaning buxgalteriya g'oyalari ta'sirida shakllanadi va rivojlandi.*

*XIX asrning birinchi yarmida Rossiya maktabida buxgalteriya hisobi fan sifatida barpo bo'lgan. Ushbu maktab K.I.Arnold, I.A.Axmetov, E.A.Mudrov, I.S.Vavilov, E.E.Sivers. shuningdek, E.K.Gilde, M.X.Jebrak, N.A.Blatov, F.V.Ezerskiy, A.P.Rudanovskiylar ham ulkan xissa qo'shganlar.*

Buxgalteriya hisobi fani aniq, qiziqarli, tortishuvli va muammoli fanlardan biri hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra buxgalteriya hisobini tashkil qilish va takomillashtirish borasida to'rtta yirik davlat: italyan, frantsuz, nemis va Angliya-Amerika maktablari mavjuddir. Buxgalteriya hisobining tashkiliy jihatlari borasida bu maktablarning qarashlari bir-biriga o'xshamaydi. Ularning ta'limotlariga ko'ra buxgalteriya hisobi fanining asosi ham har xil talqin qilinadi. Masalan, italyan maktabi vakillari buxgalteriya hisobi fanining asosini aljebra va huquq, frantsuz maktabi vakillari siyosiy iqtisod, nemis maktabi vakillari matematika, angliya-amerika maktabi vakillari psixologiya deb qaraydilar. SHu sababli buxgalteriya hisobi fanining vazifasi, predmeti, ob'ekti, usul va uslubiyoti, tamoyillari hamda tarkibiy tuzilishi borasidagi ularning qarashlari turlichadir.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi tadqiqotchilari shuni tasdiqlaydiki, L.Pacholidan keyingi 200 yillik davrida buxgalteriya hisobi nazariyasi matematikaning bir qismi sifatida, keyingi 200 yillik davrida huquqning bir qismi, oxirgi 100 yillik davrda esa buxgalteriya hisobi sifatida rivojlangan.<sup>2</sup>

Buxgalteriya hisobining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, quyidagi fikrlarga kelish mumkin:

1) buxgalteriya hisobi yangi emas, birinchi hisob yozuvlari 4000 yil

<sup>2</sup> M.I. Kuter Vvedenie v buxgalterskiy uchët: Uchebnik [Elektronniy resurs]: uchebnoe elektronnoe izdanie (uchebnik) / M.I. Kuter - Elektron. dan. (23 Mb). – 2- izd. ster. - Maykop: Elit, 2015. - 1 elektron. opt. disk (CD-R). 14-s.

oldin amalga oshirilgan;

2) oldingi buxgalteriya hisobi investorlar uchun emas, balki boshqarish maqsadida yuritilgan;


3) buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishi aniq bir mamlakat yoki millat doirasida emas, balki Afrika, Hindiston, Eron, Iroqda va yana boshqa bir davlatda uzviy bog'langan holda takomillashib kelgan;

4) buxgalteriya hisobi texnik tarzda rivojlandi.<sup>3</sup>

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatining foydalilik darajasini doimo tahlil qilishga va amalga oshirilayotgan jarayonlarning hisobini to'g'ri tashkil qilishlari zarur. Bu sharoitda, buxgalteriya hisobi va tahlilning ahamiyati katta bo'lib, ulardan yanada unumli foydalanish zaruriyati ortib boradi. Chunki, aynan shu sohalar iqtisodiyot sub'ektlarining aytib o'tilgan talablarning bajarili shida muhim o'rinni egallaydi.

## 1.2. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi va vazifalari.

Insoniyat hayotidagi har bir davr, g'oya va iqtisodiy qarashlar ustuvor o'rin egallab, ijtimoiy -iqtisodiy tushunchalarini shakllantirgan va bu tushunchalar o'z rivojini topgan. Davrlar o'tib jamiyat taraqqiyotida amalga oshirilgan har bir xodisa va o'z ta'sirini bevosita ishlab chiqarishga, iste'molga o'tkazib kelgan.




<sup>3</sup> Eldon S. Hendriksen Michael F. Van Breda. Accounting theory. Per. s angl./Pod red. prof. YA.V. Sokolova. — M.: Finansi i statistika, 2011. — 38 s.

Iste'mol bilan ta'minot doimo bir-birini to'ldirib beruvchi jarayon hisoblangan. Ishlab chiqarishni o'sib borishida mahsulotga bo'lgan talab, mahsulot ishlab chiqaruvchilar soni, sifati raqobatbardoshlikni yuzaga keltiradi. Har bir ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotini sifatli bo'lishini, talabga javob berishini va arzonga tushishini ta'minlash uchun harakat qiladi.

Menejerlar nazoratidagi resurs mablag'lar hisobi haqidagi ma'lumotni davriy tarzda berishlarini talab qiladi. Buxgalteriya tomonidan hisoblab chiqarilgan natijalar biznesning iqtisodiy resursini hisobot davomida yuqoriga ko'tarilgan yoki tugaganini ko'rsatadi.<sup>4</sup>

Iqtisodiyotimizdagi hisob turlari asosan quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar va tashkilotlarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;
- kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;
- korxonalar, tashkilotlar, muassasalar xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish;
- maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.



**1.2.1-rasm. Buxgalteriya hisobining vazifalari**

<sup>4</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 3 p.



Yuqorida aytilganlarga asoslanib, buxgalteriya xisobining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy fondlar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'larining kelib tushishi va ularning harakatini to'la va o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;

- mahsulot ishlab chiqarish, ularni sotish, mehnat unumdorligi, foyda, rentabellik, mehnat haqi fondi, kapital sarflar, byudjet va boshqa tashkilotlar bilan xisoblashish va boshqa kursatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishini aniq aks ettirish, kuzatish va ularning natijalarini topish;

- sub'ektning va uning ayrim bo'limlaridagi ishlab chiqarish, qurilish-montaj va boshqa ishlar bilan bog'liq xarajatlarni to'la aks ettirish, nazorat qilish hamda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning iqtisodiy jixatdan asoslangan hisobot kalkulyatsiyasini tuzish;

- sub'ekt va uning ayrim bo'limlarining rahbarlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha bo'linmalariga doir to'la va aniq iqtisodiy axborot bilan tezlikda ta'minlab turish;

- ta'sischi, aksiyadorlar, sarmoya egalari, yuqori tashkilot, moliya, solik, statistika va boshqa buxgalteriya hisoboti ma'lumotlaridan foydalanuvchi tashkilot va shaxslarga o'z vaktida topshirish uchun aniq hisobotlarni yaratish;

- boshqaruv karorlarini iqtisodiy jixatdan asoslab berish uchun umumlashtirilgan axborotning tartiblashtirilgan okimini taminlash;

- to'la xo'jalik xisobini sub'ekt miqyosida hamda uning ayrim ishlab chiqarish bo'linmalari va brigadalarida joriy etish va mustahkamlash;

- sub'ektning mablag'laridan to'la va unumli foydalanish, undagi mulklarning butligini ta'minlash, iqtisodiy tejash tartibiga rioya qilish, sub'ekt jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish ustidan nazorat yuritish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash.

**Buxgalteriya hisobi** — ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat.

Boshqaruvchilar ichki foydalanuvchilarga kiradi. Ular hozirgi natijalarni moliyaviy hisobotini to'laligicha bilishlariga imkoniyati bor.



Ichki foydalanuvchilarga misol sifatida kompaniyada direktorlar va menejerlar kiradi. Qonunan ichki foydalanuvchiga ma'lumot olish hajmi chegaralmagan.<sup>5</sup>

### **1.3. Buxgalteriya hisobi va unda zamonaviy axborot texnologiya va innovatsion usullardan foydalanish yo'llari**

Buxgalteriya hisobini **yuritishga** aloqador bo'lgan rahbarlar, buxgalterlar va boshqa shaxslar buxgalteriya hisobini tashkil etish va **yoritishda** buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillariga rioya qilishlari kerak.

Buxgalteriya apparati hujjatlarni ishlab chiqishi, buxgalteriya registrlarida hisob yozuvlarini oqilona olib borishi va ular asosida boshqaruv va moliyaviy hisobotlarni tuzishni ta'minlashi zarur.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni **yuritishga** ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Asta-sekin korxonalarida hisob jarayonini tashkil qilish amaldagi moliyaviy qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshirilmoqda.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilishdagi yangicha yondashishning mazmuni shundan iboratki, buxgalteriya hisobi davlat tomonidan belgilangan umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda korxonada buxgalteriya hisobini **yuritishdan** ko'zlangan asosiy vazifalarni bajarish uchun mustaqil ravishda hisob **yuritish** siyosatini ishlab chiqiladi.

«Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli O'zbekiston Respublikasi 1-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartiga muvofiq **hisob siyosati** xo'jalik **yorituvchi** sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini **yuritish** va moliyaviy hisobotni tayyorlash hamda tuzish uchun foydalaniladigan maxsus tamoyillar, qoidalar va amaliy yondashuvlar to'plamini ifodalaydi.

SHuningdek, xo'jalik **yurituvchi** sub'ektning hisob siyosati korxonada rahbari tomonidan 1-sonli BHMS asosida tuzilib, xo'jalik **yurituvchi** sub'ektning turli yillar uchun taqdim qilingan moliyaviy hisobotlaridagi ko'rsatkichlar taqqoslanadigan hamda boshqa aloqador BHMS lar asosida shakllantirilgan bo'lishi lozim.

Xo'jalik **yorituvchi** sub'ekt har bir kalendar yili uchun o'z hisob siyosatini ishlab chiqishi kerak.

---

<sup>5</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 4-5 p.





Hisob siyosatida moddiy qiymatliklarni tayyorlash, sotib olish va baholash qoidalari va tartibi, buyomlarni asosiy vositalar va arzon va tez eskiruvchi buyomlarga kiritish mezoni, ularning eskirishi, tayyor mahsulotlarni baholash va sotish tartibi, buxgalteriya hisobini ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish va boshqalar belgilanadi. Navbatdagi hisobot yili uchun ishlab chiqilgan hisob siyosati korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng yoridik hujjat statusiga ega bo'ladi.

Xo'jalik yorituvchi sub'ektning hisob siyosati xo'jalik rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Mamlakatimizning sub'ektlarida buxgalteriya xisobi 1996 yil 30 avgustida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobi tugrisida"gi O'zbekiston Respublikasining konuniga asoslanib tashkil etiladi. Qonunning **9-moddasiga ko'ra**<sup>6</sup> buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga yoklatiladi.

Buxgalteriya hisobini yoritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari, shu jumladan kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun soddalash-tirilgan buxgalteriya hisobini yoritish standarti bilan belgilanadi.

Byodjet tashkilotlarining hamda davlat maqsadli jamg'armalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotini tartibga solish byodjet hisobi standartlari hamda boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Banklar va boshqa kredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobi hamda hisobotini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.


Bu Konunga kura Respublikamizning sub'ektlarida buxgalteriya xisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya xisobining standartlarini ishlab chikish va tasdiklash Respublika Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Buxgalteriya xisobini yoritish tartibi esa me'yoriy xujjatlarda keltirilgan tegishli koidalariga asoslanadi. SHu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun buxgalteriya xisobini soddalashtirib yoritish standarti xam, buxgalteriya xisobining milliy standartlari bilan belgilanadi.

---

<sup>6</sup> "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016 yil 13 aprel. № O'RQ-404.

Buxgalteriya xisobini yoritishning ushbu koidalari bu boradagi jaxon standartlariga moslangan bulib, rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlarning sub'ektlarida yoritilayotgan buxgalteriya xisobi va hisoboti uchun zarur bulgan eng asosiy tamoyillari kontseptsiyalarini mamlakatimizning sub'ektlarida joriy etishga karatilgan.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda xozirgi paytda buxgalteriya xisobining 20 dan ortik tamoyillari mavjud.



### 1.3.1.-rasm. Buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy asoslari

Nima uchun bizga moliyaviy hisobot standartlari kerak? Standartlar kerakligining sababi, buxgalteriya hisobotlarini bir xil tizimda shakllantirishdir.<sup>7</sup>

Keltirilgan ishlarni bajarish bilan buxgalteriya hisobining uzoq muddatga mo'ljallangan konseptsiyasini yaratish hamda bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardosh tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratiladi.

Xalqaro biznes tili sifatida buxgalteriya hisobi davlat qonunlarini bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlantirilishiga mulkni saqlash va ko'payishiga xizmat qilishi, manfaatdorlar tomonidan muhim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida etkazib berishi kerak. Buxgalteriya hisobini hozirgi zamon talabi darajasida tashkil etish quyidagi kompleks tadbirlar bilan ta'minlanadi:

<sup>7</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 101 p.



- buxgalteriya hisobini qonuniy tartibga solish va uning me'yoriy bazasini shakllantirish;

- uslubiy ta'minot (yo'riqnomalar uslubiy ko'rsatmalar, sharhlar) bilan;
- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan;
- xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo'li bilan;
- hisobni boshqarish tizimini qaytadan tashkil etish yo'li bilan.

Qonun buxgalteriya hisobini tashkil etish, buxgalteriya hujjatlari va registrlari, aktiv va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish va baholashning asosiy tamoyillari va qoidalari, o'z va qarzga olingan kapitalning hisobi, moliyaviy hisobotlar oldiga qo'yilgan negiz vazifalar, maqsad va talablarni belgilab berishi kerak edi. Ushbu muhim hujjat 1996 yilning 30 avgustida qabul qilindi. U «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi O'zbekiston Respublika-sining qonuni» deb nomlanadi.

Buxgalteriya hisobini yoritishga aloqador bo'lgan rahbarlar, buxgalterlar va boshqa shaxslar buxgalteriya hisobini tashkil etish va yoritishda buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillariga rioya qilishlari kerak.

**O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” Qonunining 11-moddasiga<sup>8</sup> ko'ra** buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni buxgalteriya hisobi sub'ektining rahbari amalga oshiradi.

Buxgalteriya hisobi sub'ektining rahbari quyidagi huquqlarga ega:

buxgalteriya hisobi xizmatining rahbari boshchiligida buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish yoki shartnoma asosida jalb qilingan buxgalter xizmatidan foydalanish;

buxgalteriya hisobini yoritishni ixtisoslashtirilgan tashkilotga (auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari va ustavida buxgalteriya hisobini yoritish bo'yicha xizmat ko'rsatish nazarda tutilgan boshqa tashkilotlar) shartnoma asosida yoklash;

buxgalteriya hisobini mustaqil yoritish.

Buxgalteriya hisobi sub'ektining rahbari:

hisob siyosati, ichki hisob va hisobot tizimi ishlab chiqilishini;

ichki nazorat tartibini;

buxgalteriya hisobi to'liq va ishonchli yoritilishini;

hisob hujjatlarining but saqlanishini;

---

<sup>8</sup> «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016 yil 13 aprel. № O'RQ-404.



moliyaviy hisobotning tayyorlanishini;  
soliq hisobotining va boshqa moliyaviy hujjatlarning tayyorlanishini;  
hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilishini;  
ushbu Qonun [12-moddasining](#) talablariga rioya etilishini ta'minlashi shart.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Buxgalteriya hisobining maqsadi foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir.

Buxgalteriya hisobining vazifalari:

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma'lumotlarni shakllantirish;

- samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish;

- moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobini yoritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan, kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yoritish standarti bilan belgilanadi.

Rahbar imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarining ikkita ro'yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro'yxatga - rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar, ikkinchisiga - buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi.

#### **1.4. Xo'jalik xisobining umumiy tavsifi.**

Korxonalar, tashkilot va muassasalarda buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyatini kuzatish, boshqarish va nazorat qilish maqsadida yoritiladi. Buning mazmunida ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish yotadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish o'z navbatida ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga bo'linadi. Ishlab chiqarish sohasiga moddiy boyliklarni ishlab chiqaruvchi hamda moddiy boyliklarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga etkazib berish bilan band bo'lgan tarmoqlari kiradi.

Ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish - korxonaning jamg'armalaridan, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va pul mablag'laridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## Markazlashgan va markazlashmagan buxgalteriya.

### Markazlashgan buxgalteriya

Barcha boshlang'ich va yig'ma hujjatlar xo'jalikning bo'linmalarida tuzilib, markaziy buxgalteriyaga topshiriladi va u erda bu hujjatlarni ishlash, xo'jalik muomalalarining buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schyotlarida aks ettirish, choraklik, yarim yillik, to'qqiz oylik va yillik buxgalteriya balansi va hisobotlarini tuzish amalga oshiriladi.

### Markazlashgan buxgateriya

Mulkchilikning har xil shakllaridagi korxonalariga zarur bo'lgan mablag'lar ma'lum manbalar hisobidan shakllanadi. Ishlab chiqarish - taqsimot, aylanish va iste'mol jarayonlariga xizmat qilaturib, korxonalar mablag'lari uzluksiz doirada aylanishni amalga oshiradi. SHuning uchun buxgalteriya hisobi bu erda moddiy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan doiraviy aylanish jarayonidagi korxonalar mablag'larining holatlari va ulardan foydalanishni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotni shakllantiradi. Noishlab chiqarish sohasini aholiga xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlari tashkil qiladi. Bularga sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, san'at hamda davlat boshqarmalari va mudofaa muassasalari kiradi. Noishlab chiqarish sohasida garchi mahsulot ishlab chiqarilmasa ham, u ishlab chiqarish sohasiga o'zining natijalari orqali ijobiy ta'sir qiladi.

Noishlab chiqarish sohasi tashkilotlari va muassasalarining xo'jalik faoliyatlari, ularga davlat byodjetidan qisman ajratilgan hamda o'zi ishlab topgan mablag'lardan qay darajada samarali foydalanilayotganini boshqarishdan iborat. SHunday qilib, noishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish tarmog'ida yaratilgan ijtimoiy mahsulotning taqsimoti va iste'moli sodir bo'ladi. Demak, buxgalteriya hisobi noishlab chiqarish sohasiga ajratilgan mablag'larning holati, sarflanishi xaqida axborotlarni shakllantiradi.

Moddiy boyliklarning noishlab chiqarish sohasida iste'mol qilinishi, noishlab chiqarishning bir qismidir. Undan tashqari, noishlab chiqarishning iste'moliga shaxsiy iste'mol va jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish ham

kiradi. SHaxsiy iste'molni buxgalteriya hisobi bevosita o'z ichiga olmaydi. Lekin shaxsiy iste'mol buxgalteriya hisobida mutlaqo aks ettirilmaydi, deb o'ylash xatodir. Haqiqatda, buxgalteriya hisobi uni aks ettiradi, lekin uni tavsiflash uchun zarur bo'lgan barcha ko'rsatkichlarga ega emas. SHaxsiy iste'mol to'g'risidagi ma'lumotlarni savdo, umumiy ovqatlanish korxonalari, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa tashkilotlarning hisobotlaridan olish mumkin. Bu ma'lumotlar bo'yicha statistika bo'limlari shaxsiy iste'molni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlaydi.

### Markazlashmagan buxgalteriya

Dastlabki va yig'ma natijalarni ishlash, sintetik va analitik hisobni yuritish hamda balans va hisobotlarni tuzish xo'jalikning bo'linmalarida amalga oshiriladi.

#### **1.4.2.-rasm. Markazlashmagan buxgateriya**

Ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarishdan tashqari buxgalteriya hisobida mehnat kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish ham aks ettiriladi.


Buxgalteriya hisobida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, mehnat kuchini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan har xil xarajatlarni hamda ish haqi va ularning turli xildagi daromadlari harakatini hisoblab topish yo'li bilan aniqlanadi. Ishchi kuchini tayyorlash xarajatlari, ish haqini to'lash va xo'jaliklarning daromadlarini taqsimlash, moddiy qiymatliklar va pul mablag'larini sarflashni anglatadi.

Ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish buxgalteriya hisobida mulkchilikning har xil shakllaridagi korxonalar jamg'armalarining mavjudligi va harakatini aks ettirgan holda qayd qilinadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida ularning o'zgarishini ko'rsatib, buxgalteriya hisobi mulkning rivojlanishini tavsiflaydi va shu bilan ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarish haqidagi zarur ko'rsatkichlarni beradi.

## 1.5. Xo'jalik hisobining turlari: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan hisob tizimi ham takomillashib, fan sifatida **yuza**g kela boshlagan. Hozirgi kunga kelib, hisobning uch turidan joydalaniladi:

1. Operativ (Tezkor) hisob.
2. Statistik hisob.
3. Buxgalteriya hisobi.



### 1.5.1-rasm. O'zbekiston Respublikasining hisob tizimi.

Yuqorida ketirilgan chizmadan ko'rinib turibdiki, sanab o'tilgan hisob turlarining birligi O'zbekiston Respublikasining hisob tizimini tashkil qiladi. Lekin ular vazifalari, tashkil qilishning usul-uslubiyoti kabi belgilari bilan bir-biridan farq ham qiladi.

Operativ hisob turli-tuman xo'jalik xodisalarini o'z ichiga olib, asosan ishlab chiqarish - texnika xususiyatidagi ko'rsatkichlar bilan ta'minlaydi. U mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha topshiriqlarning bajarilayotgashshgi, xarajatlar normativlaridan kundalik chetga chiqishlar, ish kuchidan foydalanish va asbob-uskunalarining yuklanganlik darajasi, shartnomalarga rioya qilinishi - mol etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan tuzilgan kontraktlarning bajarshshshi haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Operativ hisobda o'lchovlarning




hamma turlari - moddiy, mehnat va qiymat o'lchovlaridan foydalaniladi. Lekin hisobning bu turi asosan bir turdagi operatsiyalarni aks ettirganligi va undan umumlashtirilgan ko'rsatkichlar talab qilinmaganligi sababli, unda asosan moddiy va mehnat o'lchovlaridan foydalaniladi. Nazoratning operativligini ta'minlash uchun xo'jalik operatsiyalarining borishi haqidagi axborotni tezroq olish kerak bo'ladi. SHuning uchun operativ hisobning ma'lumotlari iloji boricha osonroq yo'l bilan qayd qilinishi mumkin. Ularni bevosita kuzatish yo'li bilan etkazishadi, telefon, faks, modem orqali, kompyuter aloqasi yordamida va boshqa yo'llar bilan xabar qilishadi. Hozirgi vaqtda operativ axborotni olish uchun mexanika va avtomatik o'lchov, tartibga soluvchi asboblardan moslamalardan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Hisobni bunday tashkil qilish xo'jalik operatsiyalarining borishi ustidan ularning amalga oshirilishi vaqtida bevosita boshqarish imkonini beradi.

Operativ hisobning ma'lumotlaridan mutlaq aniqlik talab etilmaydi, chunki ularning asosiy vazifasi - kuzatilayotgan ob'ektlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tezlik bilan xabar qilishdir. SHuning uchun amaliyotda operativ hisobdan faqat taxminiy axborotni olish bilan kifoyalanadilar. Lekin bu axborot etarli darajada to'g'ri bo'lishi kerak, zero, unga qarab sodir bo'lgan o'zgarishlarning hajmi va tavsifi haqida ishonchli xulosa qilib, xatosiz bo'lgan boshqaruv qarorlarni qabul qilish mumkin bo'lsin.

Operativ hisob korxonaning har xil bo'linmalari - bo'limlari, tsexlari, omborlari va hokozolar tomonidan yuritiladi.

Operativ axborot yordamida - menejerlar ishlab chiqarish, foyda bo'yicha topshiriqni bajarilishining borishi, korxonani ta'minlash va mahsulot sotish bo'yicha topshiriqlarning bajarilishi, tovar moddiy qiymatliklar zaxirasining darajasi hamda boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar bilan hisob-kitoblarning holati va borishi haqidagi ma'lumotlarni olishda foydalanishadi.






### 1.5.3.-rasm. Statistik hisob.

Statistik hisob statistika fani - statistika usullaridan foydalanadi. Mustaqil ijtimoiy fan sifatida statistika faqat xo'jalik hodisalarinigina o'z ichiga olmay, jamiyat hayotining boshqa tomonlarini ham qamrab oladi. Jumladan, uning yurdamida aholining soni, tarkibi va harakati, xalq xayutining moddiy va madaniy darajasi, uning ijtimoiy hayuti haqidagi ko'rsatkichlar olinadi.

Xo'jalik hodisalari haqidagi ma'lumotlar statistik hisob tomonidan operativ va buxgalteriya hisobi korxonalar, tashkilot va muassasalarda mustaqil ravishda tashkil qilinadigan dastlabki hisobdan olinadi. Ba'zi ma'lumotlar statistik kuzatuvning alohida shakllari - qayta ro'yxatga olish va tekshirishlar yurdamida olinadi. Uzlüksiz kuzatib bo'lmaydigan ommaviy hodisalarni tavsiflash uchun dastlab kuzatish usulidan keng foydalaniladi.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi xo'jalik hodisalarini tavsiflovchi ma'lumotlar asosan maxsus davlat statistika organlari - Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining statistika boshqarmasi tomonidan olinadi va ishlab chiqiladi. Dastlabki materiallarni ilmiy ishlash va tahlil qilish olingan ko'rsatkichlarni ular tomonidan yig'ish va guruhlash, o'rtacha sonlar usuli, nisbiy jamlar, indekslar, dinamik qatorlar va shu kabi maxsus usullardan foydalanish yurdamida amalga oshiriladi.

Statistik hisobning ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish uchun ham barcha mavjud o'lchovlar - natija, mehnat va pul o'lchovlaridan, o'rganilayotgan hodisaning mazmuni va qo'yilgan vazifalariga qarab foydalaniladi.



#### **1.5.4-rasm. Buxgalteriya hisobi.**


Buxgalteriya hisobi — ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat.

Buxgalteriya hisobi yurdamida xo'jalikda mavjud bo'lgan har xil turdagi moddiy qiymatliklar va pul mablag'larining miqdori, boshqa korxonalar hamda tashkilotlar bilan hisob-kitoblarning holati, undagi boshqa resurslarning umumiy hajmi haqida ma'lumotlar olinadi; tayyurlangan materiallar, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi hamda tannarxi aniqlanadi; xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari — foyda yuki zarar hisoblab chiqiladi; korxonaning rentabelligi hamda korxonalar va uning tarkibiy qismlarining boshqa qator ko'rsatkichlari hisoblab aniqlanadi.

#### **1.6. Hisob turlarida qo'llaniladigan: natural, mehnat va pul o'lchovi birliklari.**

SHuni ta'kidlash lozimki, xalqaro standartlarga javob beradigan va bozor iqtisodiyoti xususiyatlariga mos keladigan hisobning yangi tizimini ishlab chiqishda olim va amaliyotchilar rivojlangan mamlakatlarda bu sohada yaratilgan yangiliklarga ko'rko'rona yundoshayotganlari yu'q. Xorijiy mamlakatlarning amaliyotini o'rganish, ularni chuqur va har tomonlama tahlil qilish O'zbekiston Respublikasida hisob tizimining takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Hozirda Respublikamiz hisob tizimida quyidagi o'lchov birliklaridan foydalaniladi:



**1.6.1-rasm. Hisob turlarida qo'llaniladigan o'lchov birliklari.**

**Natura o'lchov birligi tezkor** hisobda, statistik hisobda, buxgalteriya hisobining analitik hisobida keng qo'llaniladi. Bu o'lchov birligi bir turdagi buyumlar hisobi uchun kerak bo'ladi. Masalan, bolalar oyuq kiyimini, muzlatkichlar soni, gazlama metri va shu kabilar (metr, kg, dona, juft, litr va h.k).



**Pul o'lchov birligi** xo'jalik jarayunlari (operatsiyalar) va vositalarini yagona o'lchovda (pulda) umumlashtirishda qo'llaniladi, ya'ni barcha mablag'lar qiymat o'lchov birligida ifodalaniladi. O'zbekiston Respublikasida pul o'lchov birligi sifatida so'm, tiyin qabul qilingan.

**Vaqt (mehnat) o'lchov birligi** (oy, kun, soat, minut, sekunt) esa biror bir statistik yuki xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan ishchi kuchi, ishchi soni, ish soati va hokazolarni aniqlashda qo'llaniladi. Savdo korxonasida esa ma'lum bir tovar oborot miqdori uchun sarf etilgan ish vaqtida, ish soati, ish kuni, ishchi kuchi va hokazoni aniqlashda kerak bo'ladi. Vaqt o'lchov birligi xodimlar bilan mehnat haqi yuzasidan hisob-kitoblarni olib borishda ham ahamiyatlidir. Vaqt o'lchov birliklari natura o'lchov birliklari bilan birgalikda mehnat unumdorligini bildiradi.




### 1.7. Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt ta'minot, ishlab chiqarish, sotish jarayunlari bilan o'z faoliyatini tartibga solish uchun harakat qiladi va bu harakat natijasida uning moliyaviy holati o'zgarib boradi. Bu faoliyat davomida mahsulot ishlab chiqarishning uzluksizligi, ta'minotni talabga mos kelish imkoniyatlarini tezlashtiruvchi omilga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bu holat korxonada mablag'lari tarkibidagi tegishli o'zgarishlarni yuzaga keltirish bilan birga mulk egasini tegishli mablag'larga bo'lgan talabini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Amalga oshirilgan har bir jarayunda mablag'larning biridan ikkinchisiga o'tish xollari namoyun bo'ladi. YA'ni xom ashyu tayyor mahsulotga, tayyor mahsulot pulga aylanishi bilan mablag'lar harakati o'rganiladi. Demak, buxgalteriya hisobi yurdamida har bir korxonada va tashkilotlarga taaluqli bo'lgan mablag'lar hamda xo'jaliklarda amalga oshirilgan xo'jalik jarayunlari ta'siridagi o'zgarishlar aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobi predmetining asosiy mazmuni korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan resurslarni samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotni shakllantirishdan iborat. SHu mablag'larning sarflanishi, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat natijalarini ratsional hamda to'g'ri boshqarish hozirgi vaqtda muhim ahamiyat

kasb etadi.



### 1.7.1.-rasm. Buxgalteriya hisobining predmeti<sup>9</sup>

Buxgalteriya hisobining predmetini o'rganishda, uning tarixiy xarakterini hisobga olish kerak. Chunki buxgalteriya hisobi predmetning mazmuni har xil iqtisodiy tuzumlarda bir xil bo'lmagan. Ularning o'zgarishi bir tuzumdan boshqasiga o'tish paytida, mulkchilik shakllarining rivojlanishi bilan belgilanib borilgan.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi hamda «buxgalteriya hisobi kurslarini va unga tenglashtirilgan tarmoqlarda buxgalteriya hisobini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi» fanini tashkil topishi bu fanning predmetini o'rganish, bu fanning hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi vazifalarini o'rganishda xalqaro va milliy buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish va tadbiiq qilish sharoitida o'rganish va tahlil qilish imkonini beradi. Buxgalteriya hisobini o'rganishda birinchi navbatda uning vazifalarini o'rganishdan boshlash kerak. Chunki har bir fan o'z vazifalarini bajarishda tegishli usullardan foydalanish imkonini yaratadi. Bizning nazarimizda fanning predmeti o'z oldida turgan vazifalarini bajarish uchun shu fanga tegishli usullarni taqozo qiladi.

Mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi yuritiladi. Bu to'g'risida «Korxonalar to'g'risida»gi qonunning 33- moddasida «Korxonalar o'z ishi natijalarining operativ va buxgalteriya hisobini amalga oshiradi, statistika hisobotini olib boradi» deb ko'rsatilgandir.

Iqtisodiy adabiyotlarda jumladan «buxgalteriya hisobi»ga doir adabiyotlarda buxgalteriya hisobini yuritish bevosita mablag'lar harakati bilan bog'liq nazoratni kuchaytiradi, moliyaviy natijalarni aniqlash imkonini yaratiladi, mahsulot tannarxi aniqlanadi deb tushuntiriladi. To'g'ri, yuqoridagi fikrlar

<sup>9</sup>Xolbekov.R.O. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" darslik –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa uyi -2011.



buxgalteriya hisobi oldidagi vazifalarni hal qilishda zaruriyati **yuqori** lekin, moddiy javobgarlik tamoyillarni esdan chiqarish yuki inobatga olmaslik buxgalteriya hisobi predmetini ochib berishda ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bizning fikrimizcha buxgalteriya hisobi predmetida moddiy javobgarlik, moddiy javobgar shaxslarning mablag'lar holati to'g'risidagi hisobotga predmetni o'rganishda alohida e'tiborni talab qiladi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlarda mablag'lar harakatini boshlang'ich davri bo'lib, o'tkazilgan kunini emas balki, hujjatda ko'rsatilgan mablag'lar harakati moddiy javobgar shaxslarning hisobotlarida aks ettirilishi hisoblanishi kerak.

Fikrimizni dalili sifatida quyidagi misolga murojat etaylik:

Havo inson organizmi uchun zarur bo'lgan modda yuki suv. Lekin havo, suvni qanchalik zaruriyati **yuqori** bo'lishiga qaramay buxgalteriya schyutlarida havo, suv degan schyutlar yu'q, chunki buning miqdori, summasi biror moddiy javobgar shaxsning hisobotida ko'rsatilmaydi. Demak, buxgalteriya hisobi predmetini o'rganishda moddiy javobgarlik tamoyiliga alohida ahamiyat berish talab qilinadi, korxonalar mablag'larining harakatini nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun tegishli usullardan foydalaniladi.

Jamiyat taraqqiyotida, alohida aholi turmush tarzini shakllanishida takror ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirishda buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan to'g'ri foydalanish iqtisodiy barqarorligini ta'kidlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobi yurdamida ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalar, xom ashyu va materiallar, tayyor mahsulot, ya'ni ishlab chiqarishda ta'minot va sotish jarayunlarini tashkil qilish uchun zamin yaratiladi va ularning to'liqligini nazorat qilinadi. Takror ishlab chiqarishni bir me'yurda uzluksiz tashkil qilinishi bevosita ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayunlarini bir me'yurda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Qaysi bir jarayunni olmaylik unda mablag'lar harakatini o'zaro bog'lanishini buxgalteriya hisobi schyutlarida ifoda etilishini guvohi bo'lamiz.

Demak, har bir jarayunda tegishli moddiy javobgarlik tamoyili natijasida, ularni tasdiqlovchi hujjatlarga asoslangan buxgalteriya hisobi va hisobotlari **yuritiladi**.

Korxonalar va tashkilotlar davlat, nodavlat, **byudjet**, qo'shma va xususiy korxonalarini o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobining yana bir xususiyati shundaki, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha tashkilotlarda **yuritiladi**. Ishlab



chiqarish bilan bog'liq korxonalarda mahsulot tannarxiga asosiy e'tibor qaratilsa, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi yurdamida rejalashtirilgan sarf-harajatlarni belgilangan me'yurlarga mos kelish o'rganiladi. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan turli mulkchilikka asoslangan mablag'lar harakati o'z ifodasini topadi.

Buxgalteriya hisobini o'rganish uni tadbqiq qilish korxonada mulkini to'liqligini ta'minlash hisobni to'g'ri yuritishiga amal qilish eng avvalo buxgalteriya hisobining predmetini va bu fan orqali nimalar o'rganiladi degan savolga to'g'ri javob berilishini talab qiladi.

Bu savolga javob prof. M.Ostanakulov tomonidan yuzilgan «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» darsligida quyidagicha berilgan «Buxgalteriya hisobi predmeti kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitida korxonaning pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari va shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalaridir<sup>1</sup>» deb ko'rsatilgan. Bunday ta'rif berish birinchidan o'zbek tilida birinchi bor berilgan bo'lishiga qaramay prof. M.Ostanaqulov buxgalteriya hisobini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'langanligini, bu buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligini ochib bergan, qo'llash doirasini aniqlab berish darajasiga erishgan. Yuqorida ko'rsatilgan darslikda bu to'g'risida ayrim iqtisodiyotchilarning fikr va mulohazalari ham ko'rsatilgan.

Buxgalter o'zining tajribasiga asoslanib, tashqi hisobotlarni tuzishda qonunga asoslangan, moxirona, professional va belgilangan talablarga mos ish yuritishi lozim.<sup>10</sup>

**O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi” Qonunining 6-moddasiga<sup>11</sup> ko'ra buxgalteriya hisobi sub'ektlari** davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O'zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho'ba korxonalari, vakolatxonalar, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi sub'ektlaridir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek chet el

---

<sup>1</sup> M.Ostanaqulov «Buxgalteriya hisobi nazariyasi» Toshkent, «O'zbekiston» 1993y 33 bet

<sup>10</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 4 p.

<sup>11</sup> “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016 yil 13 aprel. № O'RQ-404.



yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalari, filiallari va boshqa tarkibiy bo'linmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob yuritadi hamda hisobot taqdim etadi.

**Ushbu Qonunning 7-moddasiga ko'ra buxgalteriya hisobi ob'ektlari** aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriyahisobining ob'ektlaridir. Buxgalteriya hisobi ob'ektlari sintetik va analitik hisoblarda yuritiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Buxgalteriya hisobini tashkil qilishning ahamiyati, fan tarixi va rivojlanish tendensiyalari?
2. Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Buxgalteriya hisobida qanday zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalaniladi?
4. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha meъyoriy huquqiy asoslar?
5. Xo'jalik hisobining umumiy tavsifi.
6. Xo'jalik hisobining turlari: tezkor (operativ), statistik va buxgalteriya hisobi
7. Hisob turlarida qo'llaniladigan: natural, mehnat va pul o'lchovi birliklari.
8. Buxgalteriya xisobi nazariyasi fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan uzviy bog'likligi, vazifalari va funksiyalari
9. Buxgalteriya hisobining predmeti va metodi
10. Xo'jjalik jarayonlarini hisobga olish, xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari tasnifi.
11. Buxgalteriya hisobining funksiyalari nimalardan iborat?